

101-guruh o'quvchilari fransuz tili fani o'qituvchisi U.Mamatjonova boshchiligida Samarqand shahrining tarixiy maskanlariga sayohat uyushtirdilar.

Joriy o'quv yilining 14-aprel kuni 101-guruhning 11 nafar bilimga chanqoq, izlanuvchan o'quvchilari fransuz tili fani o'qituvchisi U.Mamatjonova boshchiligida qadimiy va betakror, go'zallikka boy Samarqand shahrining tarixiy maskanlariga sayohat uyushtirdilar. Sayohat davomida o'quvchilar Amir Temur bobomiz barpo etgan tarixiy obidalar, Registon maydoni, Ulug'bek madrasasi, Shohi Zinda majmuasi kabi yodgorliklar va ularning tarixi bilan yaqindan tanishdilar. Bu tashrif ajdodlarimizning boy tarixini o'rganishda ma'naviy ma'rifiy maktab vazifasini o'tadi.

Mazkur sayohat darsi nafaqat bilim, balki estetik zavq, ruhiy ozuqa ham ulashdi. O'quvchilar orasida boy tariximizga bo'lgan qiziqishni yanada orttirdi.





SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati